


Doimiy aholi soni. Samarqand viloyatining doimiy aholisi soni 2020- yil 1-oktabr holatiga kelib 3928,7 ming kishini tashkil etib, 2020- yil boshidan 51,3 ming kishiga yoki 1,3 % ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 1454,3 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 37,0 %), qishloq aholisi soni 2474,4 ming kishini (63,0 %) tashkil etdi.

E'tibor bering:
2020- yil yanvar-sentabr


Doimiy aholi soni 51,3 ming kishiga ko'paydi.

Tirik tug'ilganlar soni 74,4 ming nafarni tashkil etdi.

FHDYO bo'limlarida **19,8 mingta nikoh** va **2,0 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.




Samarqand viloyati bo'yicha aholi zichligi (2020- yil 1-oktabr holatiga, 1 kv.km. ga kishi)



Samarqand viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar (yanvar-sentabr, ming kishi)

	2019- y.	2020- y.
Doimiy aholi soni, (1-oktabr holatiga)	3857,0	3928,7
Tug'ilganlar	73,9	74,4
Ko'chib kelganlar	6,2	3,5
Ko'chib ketganlar	10,3	12,7
Migratsiya sal'dosi	-4,1	-9,2
Tuzilgan nikohlar, ming birlik	23,0	19,8
Nikohdan ajralishlar, ming birlik	2,6	2,0
<i>1000 aholiga nisbatan koeffitsiyentlar, promille</i>		
Tug'ilish	25,8	25,5
tuzilgan nikohlar	8,0	6,8
nikohdan ajralishlar	0,9	0,7

Aholining tabiiy harakati (yanvar-sentabr oylarida, ming kishi)




Doimiy aholi soni

(1-oktabr holatiga, ming kishi)

	2019- yil	2020- yil	O'lgan yilga nisbatan o'sish sur'ati. %
Samarqand viloyati	3857,0	3928,7	101,9
Samarqand sh.	544,4	550,8	101,2
Kattaqo'rg'on sh.	89,1	90,4	101,5
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	157,8	160,9	102,0
Bulung'ur	185,4	188,7	101,8
Jomboy	170,9	175,0	102,4
Ishtixon	251,7	256,7	102,0
Kattaqo'rg'on	271,0	275,4	101,6
Qo'shrabot	130,4	132,8	101,8
Narpay	211,5	214,7	101,5
Payariq	248,1	253,1	102,0
Pastdarg'om	351,3	358,2	102,0
Paxtachi	143,3	145,4	101,5
Samarqand	250,1	255,2	102,0
Nurobod	149,1	151,8	101,8
Urgut	503,6	515,8	102,4
Tayloq	199,3	203,8	102,3

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi


(2020- yil 1-oktabr holatiga; viloyat jami aholisiga nisbatan, %da)




Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020- yil 1-oktabr holatiga eng ko'p aholi soni Samarqand shahriga to'g'ri kelib, viloyat aholisi sonidagi ulushi - 14,0 %ni tashkil etdi. Urgut - 13,1 %ni, Pastdarg'om - 9,1 %ni va Kattaqo'rg'on tumanlarida - 7,0 %ni tashkil etgan.

Tug'ilish. 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida 74385 nafar bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 25,5 promilleni tashkil etib, (2019- yilning yanvar-sentabr oylarida 25,8 promille bo'lgan) tug'ilish koeffitsiyenti o'zgarganini ko'rishimiz mumkin.

Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va tug‘ilish koeffitsiyenti (2020- yil yanvar-sentabr)




Ma'lumot uchun: Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.




Nikoh. 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 19 834 kishining nikohi qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,8 promilleni tashkil etdi.

Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti (yanvar-sentabr)



Nikohdan ajralishlar. 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 2 058 kishini nikohdan ajralishlari qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,7 promilleni tashkil etdi.


Hududlar kesimida nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti (yanvar-sentabr)



Migratsiya. 2020- yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3 554 kishini ko'chib ketganlar soni esa 12 717 kishini tashkil etdi. Migratsiya sa'ldosi minus 9 163 kishi bo'lib, 2019- yilning mos davrida minus 4 144 kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (kishi)

	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr
Ko'chib kelganlar	6 173	3 554
Ko'chib ketganlar	10 317	12 717
Migratsiya sa'ldosi	-4 144	-9 163



Migratsiya sa'ldosining yuqori darajasi Kattaqo'rg'on (minus 1326 kishi), Samarqand (minus 1144 kishi), Payariq (minus 1018 kishi), Ishtixon (minus 896 kishi), Urgut (minus 733 kishi), Qo'shrabot (minus 618 kishi) hamda Bulung'ur (minus 571 kishi) tumanlarida kuzatildi.

Demografiya va mehnat
statistikasi bo'limi
(66) 235-72-35